

"Toshkent politexnika" muzeyiga tashrif

"Qishloq va suv xo'jaligini energiya ta'minoti" fakulteti yoshlari bilan ishlash bo'yicha dekan muovini va Axborot tizimlari va texnologiyalari ta'lim yo'nalishi 105 - guruh murabbiyi hamda bir guruh talabalari "Toshkent politexnika" muzeyiga tashrif buyurishdi. U yerda mashinalarning kelib chiqish tarixi bilan tanishdilar. Birinchi ishlab chiqarilgan mashinadan to bugungi kungacha ishlab chiqilgan mashinlar bilan yaqindan tanishishdi. Qolaversa, o'ziga yarasha shou tomoshasining guvohi bo'lishdi. Ushbu muzey ekskursiyasi 1- kurs talabalarimizga ko'tarinki ruh bag'ishladi desa mubolag'a bo'lmaydi. Talabalar obdon ma'naviy ozuqa olishdi.



TIQXMMI matbuot xizmati